

## **B.FM** **Moliyani boshqarish**

2026 yilda imtihonga tayyorgarlik  
uchun o'quv-uslubiy qo'llanma



## **B.FM** **Молияни бошқариш**

2026 йилда имтиҳонга тайёргарлик  
учун ўқув-услубий қўлланма



# B.FM

## Moliyani boshqarish

2026 yilda imtihonga tayyorgarlik  
uchun o'quv-uslubiy qo'llanma



## Mundarija

|                                                         |   |
|---------------------------------------------------------|---|
| I. Umumiy qoidalar .....                                | 2 |
| II. Dasturning maqsadi va uning asosiy bo'limlari ..... | 6 |
| III. Imtihon formati .....                              | 7 |
| IV. Batafsil o'quv rejasi va o'quv maqsadlari .....     | 8 |

## B.FM Moliyani boshqarish

### 2026 yilda imtihonga tayyorgarlik uchun o'quv-uslubiy qo'llanma

#### I. Umumiy qoidalar

O'zbekiston sertifikatlangan moliya mutaxassislari uyushmasi (ACFP) CFS – Certified Finance Specialist bazaviy malakasi doirasida B.FM Moliyani boshqarish imtihoniga tayyorgarlik dasturini ishlab chiqdi.

CFS malakasi tuzilishi


CFS bazaviy malakasini olish uchun nomzod, B.FM Moliyani boshqarish imtihonidan tashqari, quyidagi imtihonlarni topshirishi kerak:

- B.FR Moliyaviy hisob va hisobot asoslari
- B.AU Audit va ishonchni ta'minlaydigan topshiriqlar asoslari
- B.MA Boshqaruv hisobi asoslari
- B.TX Soliq solish asoslari
- B.OO Tashkilot va uning faoliyati
- B.LW Huquq asoslari
- B.PA Amaliy buxgalteriya asoslari

Shuningdek, «Axloq va professional xulq asoslari» (B.EP) kursidan o'tish zarur.



Certified  
Finance  
Specialist



## ACFP malaka darajalari tizimi

ACFP malakalari to'rtta izchil daraja bo'yicha turkumlangan:

- A darajasi (boshlang'ich)
- B darajasi (bazaviy)
- C darajasi (professional)
- D darajasi (ilg'or)




O'qishni bilim va ko'nikmalingizga muvofiq keladigan darajadan boshlash tavsiya etiladi. A darajasidan boshlash majburiy talab emas. Mos keladigan darajani tanlash joriy malaka va professional tajribani mustaqil baholashga asoslanishi kerak.

## B.FM imtihonining ACFP tizimidagi o'rni

B.FM imtihoni moliyaviy menejmentni bosqichma-bosqich o'rganishda bazaviy pog'ona hisoblanadi va quyidagicha topshirilishi mumkin:

- CFS malakasi (B darajasi) doirasida mustaqil imtihon sifatida;
- moliyaviy menejmentni o'rganishning murakkabroq bosqichlariga (C.FM professional va D.FM ilg'or) o'tishdan oldin zarur bo'lgan pog'ona sifatida.



## Ta'lim natijalari

B.FM imtihoni nomzodlarga quyidagi imkoniyatlarni beradi:

- tashkilot moliyasini boshqarishning fundamental tamoyillarini o'zlashtirish;
- investitsiya loyihalarini baholashning amaliy ko'nikmalarini olish;
- keyingi malaka darajalarida moliyaviy menejmentni chuqurroq o'rganishga tayyorgarlik ko'rish.

## Amaliy ahamiyati

Moliyani boshqarish bo'yicha bazaviy bilim va ko'nikmalar moliya sohasi mutaxassisiga quyidagilarni bajarish uchun zarur:

- investitsiya faoliyati uchun moliyaviy menejmentning mos instrumentlarini tanlash;
- investitsiya loyihalarini baholashning tegishli usullarini qo'llash;
- tashkilotni moliyalashtirish to'g'risida asoslangan qarorlar qabul qilish;
- tashkilotning aylanma kapitalini boshqarish;
- valyuta va foiz xavflarini boshqarish asoslarini tushunish;
- moliyaviy hisob-kitoblar uchun matematika va kompyuter ko'nikmalaridan foydalanish;
- tanlangan moliyaviy boshqaruv instrumentlarini qo'llashni asoslash.

## O'quv yuklamasi

Umumiy hisobda, B.FM «Moliyani boshqarish» imtihoniga tayyorgarlik ko'rish uchun kamida 180 soat talab etiladi:

| O'quv faoliyati turi | Akademik soatlar soni |
|----------------------|-----------------------|
| Onlayn-kurs          | 70                    |
| Amaliy mashg'ulotlar | 70                    |
| Mustaqil ish         | 40                    |
| Jami                 | 180                   |

## II. Dasturning maqsadi va uning asosiy bo'limlari

«Moliyani boshqarish» fani bo'yicha imtihonga tayyorgarlik dasturining maqsadi talabalarga nomoliyaviy sektor tashkilotlarining investitsiya va moliyaviy faoliyatini amalga oshirishda moliyaviy menejmentning mos instrumentlarini tanlash va qo'llashni, shuningdek tanlangan instrumentlarni qo'llashni asoslashni o'rgatishdir.

Ushbu maqsadga erishish uchun dastur quyidagi bo'limlarni o'z ichiga olgan:

1. Tashkilotning moliyaviy kichik tizimini boshqarish: maqsadlar, vazifalar va kontekst
2. Real sektorda investitsiya qarorlarini qabul qilish
3. Biznes va moliyaviy aktivlarni baholashga kirish
4. Tashkilotni moliyalashtirish to'g'risida qarorlar qabul qilish
5. Tashkilotning dividend siyosati asoslari
6. Tashkilotning aylanma kapitalini boshqarish
7. Tashkilotning valyuta va foiz xavflarini boshqarish asoslari

Bundan tashqari, talabalar o'quv rejasining 8 va 9-bo'limlarida ta'riflangan ba'zi matematika va kompyuter ko'nikmalarini egallaganliklarini namoyish etishlari kerak bo'ladi.

Imtihonni muvaffaqiyatli topshirgandan so'ng talabalar iqtisodiyotning real sektoridagi loyihalarning investitsiya jozibadorligini baholash, tashkilotni moliyalashtirish manbalari to'g'risida qarorlar qabul qilish, xavflar va aylanma kapitalni boshqarishning mos keladigan usullarini tanlash ko'nikmalariga ega bo'lishlari kerak. Dastur talabalar avvalgi darajalarda duch kelmagan moliyani boshqarish instrumentlarini qo'llashga urg'u beradi.

### III. Imtihon formati

«Moliyani boshqarish» fani bo'yicha imtihon kompyuterda o'tkaziladi. Imtihon davomiyligi – 3 soat. Imtihonda har qanday materiallardan foydalanish taqiqlanadi.

Imtihon uch qismdan iborat. A qismi bir xil vaznga (2 ball) ega bo'lgan 15 ta test savolidan iborat. A qismi savollarining umumiy vazni 30 ballni tashkil qiladi.

B qismi uchta ssenariydan iborat bo'lib, har bir ssenariy uchun talabaga har biri 2 ball vaznga ega bo'lgan 5 ta mustaqil test savollariga javob berish taklif etiladi. B qismi savollarining jami vazni 30 ballni tashkil etadi.

Nihoyat, imtihonning C qismi har biri 20 balldan to'rtta vaziyatdan tashkil topgan ssenariydan iborat bo'lib, ular elektron jadvallarda hisob-kitoblarni hamda batafsil yozma javoblarni talab qiladigan savollarni o'z ichiga oladi.

Shunday qilib, imtihonda olish mumkin bo'lgan eng yuqori natija 100 ballni tashkil etadi. O'tish bali – 50 ball.

## IV. Batafsil o'quv rejasi va o'quv maqsadlari

### 1-bo'lim. Tashkilotning moliyaviy kichik tizimini boshqarish: maqsadlar, vazifalar va kontekst

#### 1.1 kichik bo'lim. Tashkilotning maqsadlari va ularni o'lchash usullari

Ushbu kichik bo'limni o'zlashtirgandan so'ng talabalar quyidagilarni bilishlari kerak:

- A. Moliyaviy kichik tizimni tashkilotni boshqarishning boshqa kichik tizimlari kontekstida muhokama qilish va uning alohida o'lchov va boshqarishni talab qiladigan o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash.
- B. Tijorat tashkiloti maqsadlarini aniqlashga turli yondashuvlarni muhokama qilish va maqsad sifatida foydani maksimallashtirish emas, balki aksiyadorlar boyligini maksimallashtirishni tanlashni tushuntirish.
- C. Aksiyadorlar boyligini maksimallashtirish maqsadi kontekstida investitsiya va moliyalashtirish vazifalarini muhokama qilish.
- D. Tijorat tashkilotining maqsadlariga erishishning turli ko'rsatkichlarini (bozor, dividend va umumiy daromadlilik, bir aksiyaga to'g'ri keladigan foyda, xususiy va qo'yilgan kapital rentabelligi), shu jumladan ommaviy bo'lmagan tashkilotlar kontekstida hisoblab chiqarish.
- E. Tijorat tashkilotini aksiyadorlar manfaatlarini ko'zlab boshqarishni barcha manfaatdor tomonlar manfaatlarini ko'zlab boshqarish bilan taqqoslash.
- F. Zamonaviy tashkilotni boshqarishga nisbatan agentlik munosabatlari va agentlik muammosini muhokama qilish.
- G. Agentlik muammosini bartaraf etish usullarini, shu jumladan boshqaruv xodimlarini mukofotlash tizimlari, korporativ boshqaruv sohasidagi eng yaxshi amaliyot va qonunchilikni muhokama qilish.
- H. Notijorat tashkilotlarining maqsadlarini va ularga erishishni baholash usullarini, shuningdek moliyani boshqarishning an'anaviy instrumentlarining notijorat tashkilotlariga nisbatan qo'llanilishini muhokama qilish.

#### 1.2 kichik bo'lim. Tashkilotning tashqi muhiti va uning moliyani boshqarishga ta'siri

Ushbu kichik bo'limni o'zlashtirgandan so'ng talabalar quyidagilarni bilishlari kerak:

- A. Tashkilotning makroiqtisodiy muhitini, shu jumladan hukumatning fiskal va monetar siyosatining tashkilot maqsadlariga erishishga ta'sirini muhokama qilish.
- B. Milliy qonunchilikning tashkilot maqsadlariga erishishga ta'sirini muhokama qilish.
- C. Texnologik omillarning moliyani boshqarish va tashkilotning maqsadlariga erishishga ta'sirini muhokama qilish.
- D. Moliyaviy institutlar va bozorlarning rivojlanishi va ularning tashkilot maqsadlariga erishishga ta'sirini muhokama qilish.

### 1.3 kichik bo'lim. Moliya bozorlari

Ushbu kichik bo'limni o'zlashtirgandan so'ng talabalar quyidagilarni bilishlari kerak:

- A. Pul va kapital bozorlarining ishlashini, shuningdek ular o'rtasidagi farqni tushuntirish.
- B. Pul va kapital bozorlarida foydalaniladigan asosiy moliyaviy instrumentlarni aniqlash.
- C. Iqtisodiyotda banklar va boshqa moliyaviy vositachilarning vazifalarini muhokama qilish.
- D. Tashkilotlar uchun xalqaro kapital bozorlarining ahamiyatini muhokama qilish.

## 2-bo'lim. Real sektorda investitsiya qarorlarini qabul qilish

### 2.1 kichik bo'lim. Foydaga asosida investitsiya qarorlarini baholashning an'anaviy usullari

Ushbu kichik bo'limni o'zlashtirgandan so'ng talabalar quyidagilarni bilishlari kerak:

- A. Investitsiyalar rentabelligini (ROI) hisoblab chiqarish va ushbu baholash usulidan foydalanganda loyihaning maqbullik mezonlarini tushuntirish.
- B. Foydaga asoslangan loyihalarni baholashning har qanday usullarining relevant pul oqimlariga asoslangan usullarga nisbatan afzalliklari va kamchiliklarini muhokama qilish.

### 2.2 kichik bo'lim. Relevant pul oqimlari asosida investitsiya qarorlarini baholash usullari

Ushbu kichik bo'limni o'zlashtirgandan so'ng talabalar quyidagilarni bilishlari kerak:

- A. Investitsiya qarorlarini qabul qilish kontekstida relevant pul oqimlari tushunchasini tushuntirish.
- B. Loyihaning diskontlanmagan qoplash davrini hisoblab chiqarish, ushbu baholash usulidan foydalanganda loyihaning maqbullik mezonlarini tushuntirish, shuningdek uning afzalliklari va kamchiliklarini muhokama qilish.
- C. Loyihaning sof keltirilgan qiymatini (NPV) hisoblash, ushbu baholash usulidan foydalanganda loyihaning maqbullik mezonlarini tushuntirish, shuningdek uning afzalliklari va kamchiliklarini muhokama qilish.
- D. Loyihaning ichki daromad keltirish stavkasini (IRR) hisoblab chiqarish, ushbu baholash usulidan foydalanganda loyihaning maqbullik mezonlarini tushuntirish, shuningdek uning afzalliklari va kamchiliklarini muhokama qilish.
- E. NPV va IRR o'rtasidagi ehtimoliy ziddiyatlar sabablarini va ularni bartaraf etish usullarini muhokama qilish.
- F. Loyihaning diskontlangan qoplash davrini hisoblab chiqarish, ushbu baholash usulidan foydalanganda loyihaning maqbullik mezonlarini tushuntirish, shuningdek uning afzalliklari va kamchiliklarini muhokama qilish.
- G. Investitsiya loyihasining prognoz qilingan moliyaviy hisobotlarga ta'sirini muhokama qilish.
- H. Investitsiya qarorlarini qabul qilishda nomoliyaviy mezonlarning ahamiyatini muhokama qilish.

### 2.3 kichik bo'lim. Noaniqlik va xavfning investitsiya qarorlariga ta'siri

Ushbu kichik bo'limni o'zlashtirgandan so'ng talabalar quyidagilarni bilishlari kerak:

- A. Xavf va noaniqlikni investitsiya qarorlarining ajralmas xususiyati sifatida muhokama qilish, shuningdek xavf va noaniqlikni farqlash.
- B. Investitsiya loyihasining aniqlangan xavflar reestrini tuzish va o'z vaqtida yangilab borish zaruriyatini muhokama qilish.
- C. Loyihamning moliyaviy maqbulligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni, shu jumladan bozorlardagi o'zgaruvchanlik, hukumat, raqobatchilar va h. k.ning harakatlarini muhokama qilish.
- D. Berilgan ehtimolliklar asosida loyihamning kutilayotgan sof keltirilgan qiymatini hisoblab chiqarish va olingan natijalarni talqin qilish, shuningdek investitsiya qarori xavfini hisobga olishning ushbu usulining afzalliklari va kamchiliklarini muhokama qilish.
- E. Investitsiya loyihasining pul oqimlari hamda diskontlash stavkasiga nisbatan noaniqligini hisobga olish uchun sezgirlik tahlilini qo'llash, shuningdek sezgirlik tahlilining afzalliklari va kamchiliklarini muhokama qilish.
- F. Investitsiya qarori noaniqligini hisobga olish usuli sifatida imitasion modellashtirishning afzalliklari va kamchiliklarini muhokama qilish.
- G. Turli davrlar uchun turli diskontlash stavkalaridan foydalanish zarur bo'lgan ssenariylarni muhokama qilish va bunday vaziyatlarda sof keltirilgan qiymatni hisoblab chiqarish.
- H. Loyiha tugagandan so'ng investitsiya loyihasi natijalarini tahlil qilishning muhimligini tushuntirish.

### 2.4 kichik bo'lim. Soliqlar, inflyatsiya va aylanma kapitaldagi o'zgarishlarning investitsiya qarorlariga ta'siri

Ushbu kichik bo'limni o'zlashtirgandan so'ng talabalar quyidagilarni bilishlari kerak:

- A. Foyda solig'ining (shu jumladan soliq amortizatsiyasining) investitsiya loyihalarini baholashga, shu jumladan relevant pul oqimlari va diskontlash stavkasiga ta'sirini hisoblab chiqarish va tushuntirish.
- B. Qo'shilgan qiymat solig'ining relevant pul oqimi sifatida investitsiya loyihalarini baholashga ta'sirini hisoblab chiqarish va tushuntirish.
- C. Inflyatsiyaning investitsiya loyihalarini baholashga, shu jumladan relevant pul oqimlari va diskontlash stavkasiga ta'sirini hisoblab chiqarish va tushuntirish.
- D. Aylanma kapital moddalaridagi o'zgarishlarning investitsiya loyihalarini baholashga ta'sirini hisoblab chiqarish va tushuntirish.

### 2.5 kichik bo'lim. Cheklangan byudjetda bir necha loyihalar o'rtasida tanlashning o'ziga xos xususiyatlari

Ushbu kichik bo'limni o'zlashtirgandan so'ng talabalar quyidagilarni bilishlari kerak:

- A. Yumshoq va qat'iy cheklovlar o'rtasidagi farqni ajratib, investitsiyalar byudjetidagi cheklovlar sabablarini muhokama qilish.
- B. Faqat bir davr mobaynida amal qiladigan byudjet cheklovlari va bir necha davr mobaynida amal qiladigan byudjet cheklovlari o'rtasidagi farqlarni tushuntirish.

- C. Agar loyihalar bo'linadigan bo'lsa, daromadlilik indeksidan foydalangan holda faqat bir davr byudjet cheklovlari sharoitida optimal investitsiyalash dasturini aniqlash.
- D. Agar loyihalar bo'linmaydigan bo'lsa, faqat bir davr byudjet cheklovlari sharoitida optimal investitsiyalash dasturini aniqlash.

## 2.6 kichik bo'lim. Turli hayotiy siklga ega bo'lgan loyihalar o'rtasida tanlashning o'ziga xos xususiyatlari

Ushbu kichik bo'limni o'zlashtirgandan so'ng talabalar quyidagilarni bilishlari kerak:

- A. Turli hayotiy siklga ega bo'lgan o'zaro istisno qiluvchi investitsiya loyihalari o'rtasida tanlashning ehtimoliy muammosini muhokama qilish.
- B. Turli hayotiy siklga ega bo'lgan o'zaro istisno qiluvchi takrorlanuvchi loyihalar orasidan ekvivalent yillik naf usuli asosida tanlash, shuningdek ushbu usulning afzalliklari va kamchiliklarini muhokama qilish.
- C. Turli hayotiy siklga ega bo'lgan o'zaro istisno qiluvchi takrorlanuvchi loyihalar orasidan eng kichik umumiy hayotiy sikl usuli asosida tanlash, shuningdek ushbu usulning afzalliklari va kamchiliklarini muhokama qilish.

## 2.7 kichik bo'lim. Uzoq muddatli aktivlarni ayirboshlashning optimal sikli to'g'risida qarorlar

Ushbu kichik bo'limni o'zlashtirgandan so'ng talabalar quyidagilarni bilishlari kerak:

- A. Ekvivalent yillik naf usuli asosida (foyda solig'ining ta'sirini hisobga olgan holda) uzoq muddatli aktivlarni ayirboshlashning optimal siklini hisoblab chiqarish va ushbu usulning qo'llanilish shartlarini muhokama qilishni bilish.
- B. Eng kichik umumiy hayotiy sikl usuli asosida (foyda solig'ining ta'sirini hisobga olgan holda) uzoq muddatli aktivlarni ayirboshlashning optimal siklini hisoblash va ushbu usulning qo'llanilish shartlarini muhokama qilish.

## 3-bo'lim. Biznes va moliyaviy aktivlarni baholashga kirish

### 3.1 kichik bo'lim. Biznesni baholash

Ushbu kichik bo'limni o'zlashtirgandan so'ng talabalar quyidagilarni bilishlari kerak:

- A. Biznesni baholash talab qilinishi mumkin bo'lgan sabablarni muhokama qilish.
- B. Tuzatishlarni hisobga olgan holda balans usullari bilan biznes qiymatini hisoblab chiqarish va bunday baholash usullarining qo'llanilish shartlarini muhokama qilish.
- C. Erkin pul oqimi usuli bilan biznes qiymatini hisoblab chiqarish va ushbu baholash usulining qo'llanilish shartlarini muhokama qilish.
- D. Diskontlangan pul oqimlari usuli bilan biznes qiymatini hisoblab chiqarish va ushbu baholash usulining qo'llanilish shartlarini muhokama qilish.
- E. Biznesni baholashning turli usullariga xos bo'lgan axborotga doir cheklovlarni va ularni yumshatishning ehtimoliy usullarini muhokama qilish.

### 3.2 kichik bo'lim. Aksiyalarni baholash

Ushbu kichik bo'limni o'zlashtirgandan so'ng talabalar quyidagilarni bilishlari kerak:

- A. Biznesni baholash va tashkilot aksiyalarini baholashni farqlash.
- B. Doimiy dividendlar hamda o'zgarmas sur'atda o'sib borayotgan dividendlar bilan Gordonning dividend modeli asosida aksiyalar narxini hisoblab chiqarish va ushbu baholash usulining qo'llanilish shartlarini muhokama qilish.
- C. P/E («narx/foyda») koeffitsienti asosida aksiyalar narxini hisoblab chiqarish va ushbu baholash usulining qo'llanilish shartlarini muhokama qilish.
- D. Umuman ommaviy bo'lmagan kompaniyalar aksiyalarini va xususan ulardagi minoritar ulushlarni baholashning o'ziga xos xususiyatlarini muhokama qilish.

### 3.3 kichik bo'lim. Obligatsiyalar va boshqa qarz instrumentlarini baholash

Ushbu kichik bo'limni o'zlashtirgandan so'ng talabalar quyidagilarni bilishlari kerak:

- A. Obligatsiyalar va boshqa qarz instrumentlari narxiga ta'sir etuvchi omillarni tushuntirish.
- B. Obligatsiyalar (muddatli va muddatsiz) narxini hisoblab chiqarish.
- C. Konvertatsiyalanadigan obligatsiyalar narxini hisoblab chiqarish.

### 3.4 kichik bo'lim. Bozor samaradorligi nazariyasi

Ushbu kichik bo'limni o'zlashtirgandan so'ng talabalar quyidagilarni bilishlari kerak:

- A. Bozor samaradorligi nazariyasini muhokama qilish va samaradorlikning kuchli, o'rta va kuchsiz darajalarini farqlash.
- B. Bozor samaradorligining aksiyalar va biznesni baholash uchun ahamiyatini muhokama qilish.
- C. Aksiyalar bahosiga ta'sir qiluvchi xulq omillarini muhokama qilish.

## 4-bo'lim. Tashkilotni moliyalashtirish to'g'risida qarorlar qabul qilish

### 4.1 kichik bo'lim: Qarzli moliyalashtirish manbalari va ularning tannarxi

Ushbu kichik bo'limni o'zlashtirgandan so'ng talabalar quyidagilarni bilishlari kerak:

- A. Qarzli moliyalashtirishni ulushli moliyalashtirish bilan investor uchun xavf va kompaniya uchun foydalanish imkoniyati nuqtai nazaridan taqqoslash.
- B. Qarzli moliyalashtirishning tashkilotning moliyaviy xavfiga ta'sirini muhokama qilish.
- C. Tashkilotning moliyaviy xavfi ko'rsatkichlarini hisoblab chiqarish va tushuntirish.
- D. Soliq qalqonini hisobga olgan holda bank qarzining tannarxini hisoblab chiqarish.
- E. Soliq qalqonini hisobga olgan holda muddatli va muddatsiz obligatsiyalarning tannarxini hisoblab chiqarish.

- F. Imtiyozli aksiyalarning tannarxini hisoblab chiqarish va ularning muddatsiz obligatsiyalardan farqini tushuntirish.
- G. Soliq qalqonini hisobga olgan holda konvertatsiyalanadigan obligatsiyalarning tannarxini hisoblab chiqarish.

#### 4.2 kichik bo'lim. Ulushli moliyalashtirish manbalari va ularning tannarxi

Ushbu kichik bo'limni o'zlashtirgandan so'ng talabalar quyidagilarni bilishlari kerak:

- A. Tashkilot uchun mavjud bo'lgan ulushli moliyalashtirish manbalarini, shu jumladan taqsimlanmagan foyda va oddiy aksiyalarni muhokama qilish.
- B. Oddiy aksiyalarni chiqarish yordamida, shu jumladan fond birjasida moliyalashtirishni jalb qilishning afzalliklari va kamchiliklarini muhokama qilish.
- C. Oddiy aksiyalarni chiqarishning turli shakllari, shu jumladan huquqlarni chiqarishning o'ziga xos xususiyatlarini muhokama qilish.
- D. Huquqlarni chiqarishdan keyin aksiyalarning nazariy narxini va huquqning qiymatini hisoblab chiqarish.
- E. Doimiy o'sish bilan Gordonning dividend modeli yordamida ulushli kapital tannarxini hisoblash va ushbu usulning afzalliklari va kamchiliklarini muhokama qilish.
- F. Tarixiy ma'lumotlar asosida yoki taqsimlanmagan foydaning kutilayotgan rentabelligi asosida dividendlarning doimiy o'sish sur'atini hisoblab chiqarish.
- G. Kapital aktivlarni baholash modeli (CAPM) yordamida ulushli kapital tannarxini hisoblab chiqarish, ushbu usulning afzalliklari va kamchiliklarini, shuningdek uni rivojlanayotgan bozorlar sharoitida qo'llash xususiyatlarini muhokama qilish.
- H. Portfel nazariyasi va CAPM modeliga nisbatan diversifikatsiyalanadigan va diversifikatsiyalanmaydigan xavfni muhokama qilish.

#### 4.3 kichik bo'lim. O'ziga xos moliyalashtirish manbalari

Ushbu kichik bo'limni o'zlashtirgandan so'ng talabalar quyidagilarni bilishlari kerak:

- A. Islomiy moliyalashtirishning, shu jumladan savdo kreditining, ijaraning va islom obligatsiyalarining ayrim eng keng tarqalgan shakllari tamoyillari va qo'llanilishini muhokama qilish.
- B. Venchur fondlari hamda institusionallashtirilmagan xususiy investorlarni jalb qilgan holda venchur moliyalashtirishning tamoyillari va o'ziga xos xususiyatlarini muhokama qilish.
- C. Kichik biznesni moliyalashtirishning o'ziga xos xususiyatlarini muhokama qilish.
- D. Aktivlarni keyinchalik ijaraga berish bilan sotishni o'ziga xos moliyalashtirish shakli sifatida muhokama qilish.

Izoh: ushbu kichik bo'limga hisob-kitoblar kirmaydi.

#### 4.4 kichik bo'lim. Sotib olinayotgan aktivni moliyalashtirish shaklini tanlash to'g'risida qarorlar: qarz yoki ijara

Ushbu kichik bo'limni o'zlashtirgandan so'ng talabalar quyidagilarni bilishlari kerak:

- A. Muayyan aktivni sotib olishni moliyalashtirishga ta'sir qiluvchi nomoliyaviy omillarni muhokama qilish.
- B. Soliq oqibatlari va inflyatsiyani hisobga olgan holda sotib olinayotgan aktivni moliyalashtirishning optimal shaklini tanlash.

#### 4.5 kichik bo'lim. Kapitalning o'rtacha tortilgan tannarxi (WACC) va undan investitsiya qarorlarini qabul qilish uchun foydalanish

Ushbu kichik bo'limni o'zlashtirgandan so'ng talabalar quyidagilarni bilishlari kerak:

- A. Balans hamda bozor vaznidan foydalanib, kapitalning o'rtacha tortilgan tannarxini hisoblab chiqarish.
- B. Kapitalning o'rtacha tortilgan (WACC) va cheklangan (MCC) tannarxlarini farqlash.
- C. Investitsiya loyihalarini baholash uchun diskontlash stavkasi sifatida kapitalning o'rtacha tortilgan tannarxining qo'llanilish shartlarini muhokama qilish.
- D. Kapitalning oddiy o'rtacha tortilgan tannarxi qo'llanilmaydigan holatda kapital aktivlarni baholash modelidan (CAPM) foydalanib, muayyan investitsiya loyihasining xavfiga tuzatilgan diskontlash stavkasini hisoblab chiqarish.

#### 4.6 kichik bo'lim. Kapitalning optimal tuzilishini tanlash masalalari

Ushbu kichik bo'limni o'zlashtirgandan so'ng talabalar quyidagilarni bilishlari kerak:

- A. Kapital tuzilishining o'zgarishi va kapitalning o'rtacha tortilgan tannarxi o'rtasidagi kutilayotgan o'zaro bog'liqlikni muhokama qilish.
- B. Soliqlar bilan va soliqlarsiz Modilyani va Miller modellarini, ularning xulosalarini va qo'llanilish shartlarini muhokama qilish.
- C. Kapitalning optimal tuzilishini shakllantirishga nisbatan ierarxiya nazariyasini muhokama qilish.

### 5-bo'lim. Tashkilotning dividend siyosati asoslari

Ushbu bo'limni o'zlashtirgandan so'ng talabalar quyidagilarni bilishlari kerak:

- A. Aksiyadorlar boyligini oshirish kontekstida dividendlarni to'lashni muhokama qilish.
- B. Dividendlarga yoki aksiya narxi o'sishidan olingan daromadga soliq solishdagi potensial farqlarni muhokama qilish.
- C. Dividendlarning axborot funksiyasini muhokama qilish.
- D. Dividend siyosati va tashkilotning hayotiy sikli o'rtasidagi bog'liqlikni muhokama qilish.
- E. Dividendlarni muntazam to'lashga muqobil variantlar va ularning qo'llanilish shartlarini muhokama qilish.

## 6-bo'lim. Tashkilotning aylanma kapitalini boshqarish

### 6.1 kichik bo'lim. Aylanma kapitalga investitsiyalar darajasi va uni moliyalashtirish bo'yicha qarorlar

Ushbu kichik bo'limni o'zlashtirgandan so'ng talabalar quyidagilarni bilishlari kerak:

- A. Aylanma kapitalni boshqarish maqsadlarini muhokama qilish.
- B. Aylanma kapitalga investitsiyalar darajasini va tegishli investitsiyalash siyosatini belgilovchi omillarni muhokama qilish.
- C. Aylanma kapitalni moliyalashtirish siyosatini belgilovchi omillarni aniqlash.
- D. Aylanma kapital va likvidlik bilan bog'liq koeffitsientlarni, shu jumladan operatsion sikl koeffitsientlarini hisoblab chiqarish va talqin qilish.
- E. Tashkilotda overtreyding yoki haddan tashqari kapitallashuv holatlarini aniqlash, ularning sabablarini va vaziyatni tuzatish choralarini muhokama qilish.

### 6.2 kichik bo'lim. Debitorlik qarzini boshqarish

Ushbu kichik bo'limni o'zlashtirgandan so'ng talabalar quyidagilarni bilishlari kerak:

- A. Debitorlik qarzini boshqarish maqsadlarini muhokama qilish.
- B. Kredit siyosatining tarkibiy qismlarini va uning likvidlik va daromad olishga ta'sirini muhokama qilish.
- C. Kredit siyosatini monitoring qilish va dolzarbligini saqlash doirasida zarur tadbirlarni muhokama qilish.
- D. Debitorlik qarzining yig'ilishini oshirish uchun ko'riladigan choralarni muhokama qilish.
- E. Faktoring kompaniyalari taklif etadigan xizmatlarning turli variantlarining moliyaviy maqbulligini baholash va muhokama qilish, shuningdek debitorlik qarzini boshqarish usuli sifatida faktoringdan foydalanishning nomoliyaviy o'ziga xos xususiyatlarini tushuntirish.
- F. Muddatidan oldin to'lov uchun chegirmalarning moliyaviy maqbulligini baholash va muhokama qilish, shuningdek debitorlik qarzini boshqarishning ushbu usulidan foydalanishning nomoliyaviy o'ziga xos xususiyatlarini tushuntirish.
- G. Xaridorlar bilan oldindan to'lov sxemasining moliyaviy maqbulligini baholash va muhokama qilish, shuningdek debitorlik qarzini boshqarishning ushbu usulidan foydalanishning nomoliyaviy o'ziga xos xususiyatlarini tushuntirish.
- H. Xorijiy xaridorlarning debitorlik qarzini boshqarishning o'ziga xos xususiyatlarini muhokama qilish.

### 6.3 kichik bo'lim. Zaxiralarni boshqarish

Ushbu kichik bo'limni o'zlashtirgandan so'ng talabalar quyidagilarni bilishlari kerak:

- A. Zaxiralarni boshqarish maqsadlarini muhokama qilish.
- B. Tashkilot tomonidan ushlab turiladigan zaxiralar darajasiga ta'sir qiluvchi omillarni, shu jumladan zaxiralarning berilgan darajasini saqlash xarajatlarini muhokama qilish.

- C. Zaxiralar darajasini maqbullashtirish maqsadida zaxiralarni tasniflashning mumkin bo'lgan tizimlarini (AVS, tez/sekin aylanuvchanligi va h. k.) muhokama qilish.
- D. Zaxiralarni maqbullashtirish usuli sifatida buyurtmaning optimal hajmi (EOQ) modelidan foydalanganda qo'shimcha buyurtma miqdori va zaxiralarning minimal darajasini (shu jumladan etkazib beruvchilarning chegirmalarini hisobga olgan holda) hisoblab chiqarish.
- E. Zaxiralarni boshqarishning muqobil tizimlari (JIT, MRP va h. k.) tamoyillarini muhokama qilish.

#### 6.4 kichik bo'lim. Pul mablag'larini boshqarish

Ushbu kichik bo'limni o'zlashtirgandan so'ng talabalar quyidagilarni bilishlari kerak:

- A. Pul mablag'larini boshqarish maqsadlarini muhokama qilish.
- B. Pul mablag'lari va likvid qimmatli qog'ozlar balansi hajmiga ta'sir qiluvchi omillarni muhokama qilish.
- C. Pul mablag'lari prognozini tayyorlash.
- D. Tayyorlangan pul mablag'lari prognozi natijalari bo'yicha talab qilinadigan harakatlarni muhokama qilish.
- E. Qisqa muddatli ortiqcha pul mablag'larini investitsiya qilish uchun pul bozori instrumentlarini tanlash mezonlarini muhokama qilish.
- F. Miller-Orr modeli yordamida pul mablag'larining optimal balansini hisoblash.

#### 6.5 kichik bo'lim. Kreditorlik qarzini boshqarish va qisqa muddatli moliyalashtirish

Ushbu kichik bo'limni o'zlashtirgandan so'ng talabalar quyidagilarni bilishlari kerak:

- A. Qisqa muddatli moliyalashtirish kontekstida kreditorlik qarzini boshqarish maqsadlarini muhokama qilish.
- B. Etkazib beruvchilar bilan oldindan to'lov bilan ishlash sxemasining moliyaviy maqbulligini baholash va muhokama qilish.
- C. Etkazib beruvchilar taklif etadigan muddatidan oldin to'lov uchun chegirmalarning moliyaviy maqbulligini baholash va muhokama qilish.
- D. Xorijiy etkazib beruvchilarning kreditorlik qarzini boshqarishning o'ziga xos xususiyatlarini muhokama qilish.

### 7-bo'lim. Tashkilotning valyuta va foiz xavflarini boshqarish asoslari

#### 7.1 kichik bo'lim: Valyuta xavfini boshqarish asoslari

Ushbu kichik bo'limni o'zlashtirgandan so'ng talabalar quyidagilarni bilishlari kerak:

- A. Valyuta kurslarining o'zgarishini tushuntiruvchi nazariyalarni muhokama qilish.
- B. Valyuta xavfining har xil turlarini va ularning boshqarish uchun ahamiyatini muhokama qilish.
- C. Mustahkamlanayotgan/zaiflashayotgan xorijiy valyutaning milliy valyutadagi kelgusi to'lovlar yoki tushumlarga ta'sirini, shu jumladan kross-kurslar yordamida vaziyatlarni hisoblab chiqarish.

- D. Xarid qobiliyati pariteti asosida prognoz valyuta kursini hisoblab chiqarish.
- E. Hosila instrumentlarni qo'llamasdan valyuta xavfini boshqarishning klassik shakllarini muhokama qilish.
- F. Pul bozorini xedjirlash usulini qo'llaganda to'lanadigan yoki olinadigan summani hisoblab chiqarish.
- G. Valyuta xavfini boshqarishda forvard shartnomalaridan foydalanishni muhokama qilish.
- H. Foiz stavkalari pariteti asosida forvard valyuta kursini hisoblab chiqarish.
- I. Foiz stavkalari pariteti asosida forvard shartnomasining haqqoniy qiymatini hisoblab chiqarish.
- J. Valyuta xavfini boshqarishda fyuchers shartnomalaridan foydalanishni muhokama qilish.

## 7.2 kichik bo'lim. Foiz xavfini boshqarish asoslari

Ushbu kichik bo'limni o'zlashtirgandan so'ng talabalar quyidagilarni bilishlari kerak:

- A. Foiz stavkalarining o'zgarishini tushuntiruvchi nazariyalarni muhokama qilish.
- B. Foiz stavkalarining vaqtinchalik tuzilishini va daromadlilik egri chizig'i shaklini tushuntiruvchi nazariyalarni muhokama qilish.
- C. Hosila instrumentlarni qo'llamasdan foiz stavkasi xavfini boshqarishning klassik shakllarini muhokama qilish.

## 8-bo'lim. Matematika ko'nikmalari

Ushbu bo'limni o'zlashtirgandan so'ng talabalar quyidagilarni bilishlari kerak:

- A. Murakkab foizlarni hisoblab chiqarish va ularning qo'llanilish sohasini tushuntirish.
- B. Bir martalik to'lov uchun, annuitet uchun va muddatsiz annuitet uchun diskont ko'paytiruvchilarni hisoblab chiqarish va qo'llashni bilish.

## 9-bo'lim. Kompyuter bilan ishlash ko'nikmalari

Ushbu bo'limni o'zlashtirgandan so'ng talabalar quyidagilarni bilishlari kerak:

- A. Moliyaviy (NPV, IRR) va arifmetik funksiyalardan foydalangan holda loyihani tahlil qilish uchun elektron jadvallarda hisob-kitoblarni bajarish.
- B. Ish hisob-kitoblarini turkumlangan va ko'rgazmali shaklda rejalashtirish va bajarish.

# V.FM

## Молияни бошқариш

2026 йилда имтиҳонга тайёргарлик  
учун ўқув-услубий қўлланма



## Мундарижа

|                                                        |   |
|--------------------------------------------------------|---|
| I. Умумий қоидалар.....                                | 2 |
| II. Дастурнинг мақсади ва унинг асосий бўлимлари ..... | 6 |
| III. Имтиҳон формати.....                              | 7 |
| IV. Батафсил ўқув режаси ва ўқув мақсадлари .....      | 8 |

## В.ФМ Молияни бошқариш

### 2026 йилда имтиҳонга тайёргарлик учун ўқув-ўслубий қўлланма

#### I. Умумий қоидалар

Ўзбекистон сертификатланган молия мутахассислари уюшмаси (ACFP) CFS – Certified Finance Specialist базавий малакаси доирасида В.ФМ Молияни бошқариш имтиҳонига тайёргарлик дастурини ишлаб чиқди.

#### CFS малакаси тузилиши


CFS базавий малакасини олиш учун номзод, В.ФМ Молияни бошқариш имтиҳонидан ташқари, қуйидаги имтиҳонларни топшириши керак:

- В.ФР Молиявий ҳисоб ва ҳисобот асослари
- В.АУ Аудит ва ишончни таъминлайдиган топшириқлар асослари
- В.МА Бошқарув ҳисоби асослари
- В.ТХ Солиқ солиш асослари
- В.ОО Ташкилот ва унинг фаолияти
- В.ЛW Ҳуқуқ асослари
- В.РА Амалий бухгалтерия асослари

Шунингдек, «Ахлоқ ва профессионал хулқ асослари» (В.ЕР) курсидан ўтиш зарур.



Certified  
Finance  
Specialist



## ACFP малака даражалари тизими

ACFP малакалари тўртта изчил даража бўйича туркумланган:

- А даражаси (бошланғич)
- В даражаси (базавий)
- С даражаси (профессионал)
- D даражаси (илғор)




Ўқишни билим ва кўникмаларингизга мувофиқ келадиган даражадан бошлаш тавсия этилади. А даражасидан бошлаш мажбурий талаб эмас. Мос келадиган даражани танлаш жорий малака ва профессионал тажрибани мустақил баҳолашга асосланиши керак.

## В.ФМ имтиҳонининг ACFP тизимидаги ўрни

В.ФМ имтиҳони молиявий менежментни босқичма-босқич ўрганишда базавий поғона ҳисобланади ва қуйидагича топширилиши мумкин:

- CFS малакаси (В даражаси) доирасида мустақил имтиҳон сифатида;
- молиявий менежментни ўрганишнинг мураккаброқ босқичларига (С.ФМ профессионал ва D.ФМ илғор) ўтишдан олдин зарур бўлган поғона сифатида.



### Таълим натижалари

В.ФМ имтиҳони номзодларга қуйидаги имкониятларни беради:

- ташкилот молиясини бошқаришнинг фундаментал тамойилларини ўзлаштириш;
- инвестиция лойиҳаларини баҳолашнинг амалий кўникмаларини олиш;
- кейинги малака даражаларида молиявий менежментни чуқурроқ ўрганишга тайёргарлик кўриш.

### Амалий аҳамияти

Молияни бошқариш бўйича базавий билим ва кўникмалар молия соҳаси мутахассисига қуйидагиларни бажариш учун зарур:

- инвестиция фаолияти учун молиявий менежментнинг мос инструментларини танлаш;
- инвестиция лойиҳаларини баҳолашнинг тегишли усуллари қўллаш;
- ташкилотни молиялаштириш тўғрисида асосланган қарорлар қабул қилиш;
- ташкилотнинг айланма капиталини бошқариш;
- валюта ва фоиз хавфларини бошқариш асосларини тушуниш;
- молиявий ҳисоб-китоблар учун математика ва компьютер кўникмаларидан фойдаланиш;
- танланган молиявий бошқарув инструментларини қўллашни асослаш.

## Ўқув юкламаси

Умумий ҳисобда, В.ФМ «Молияни бошқариш» имтиҳонига тайёргарлик кўриш учун камида 180 соат талаб этилади:

| Ўқув фаолияти тури | Академик соатлар сони |
|--------------------|-----------------------|
| Онлайн-курс        | 70                    |
| Амалий машғулотлар | 70                    |
| Мустақил иш        | 40                    |
| <b>Жами</b>        | <b>180</b>            |

## II. Дастурнинг мақсади ва унинг асосий бўлимлари

«Молияни бошқариш» фани бўйича имтиҳонга тайёргарлик дастурининг мақсади талабаларга ноолиявий сектор ташкилотларининг инвестиция ва олиявий фаолиятини амалга оширишда олиявий менежментнинг мос инструментларини танлаш ва қўллашни, шунингдек танланган инструментларни қўллашни асослашни ўргатишдир.

Ушбу мақсадга эришиш учун дастур қуйидаги бўлимларни ўз ичига олган:

1. Ташкилотнинг олиявий кичик тизимини бошқариш: мақсадлар, вазибалар ва контекст.
2. Реал секторда инвестиция қарорларини қабул қилиш.
3. Бизнес ва олиявий активларни баҳолашга кириш.
4. Ташкилотни олиялаштириш тўғрисида қарорлар қабул қилиш.
5. Ташкилотнинг дивиденд сиёсати асослари.
6. Ташкилотнинг айланма капиталини бошқариш.
7. Ташкилотнинг валюта ва фоиз хавфларини бошқариш асослари.

Бундан ташқари, талабалар ўқув режасининг 8 ва 9-бўлимларида таърифланган баъзи математика ва компьютер кўникмаларини эгаллаганликларини намойиш этишлари керак бўлади.

Имтиҳонни муваффақиятли топширгандан сўнг талабалар иқтисодиётнинг реал секторидаги лойиҳаларнинг инвестиция жозибадорлигини баҳолаш, ташкилотни олиялаштириш манбалари тўғрисида қарорлар қабул қилиш, хавфлар ва айланма капитални бошқаришнинг мос келадиган усулларини танлаш кўникмаларига эга бўлишлари керак. Дастур талабалар аввалги даражаларда дуч келмаган олияни бошқариш инструментларини қўллашга ўрғу беради.

### III. Имтиҳон формати

«Молиявий ҳисобот» фани бўйича имтиҳон компьютерда ўтказилади. Имтиҳон давомийлиги – 3 соат. Имтиҳонда ҳар қандай материаллардан фойдаланиш тақиқланади.

Имтиҳон уч қисмдан иборат. А қисми бир хил вазнга (2 балл) эга бўлган 15 та тест саволидан иборат. А қисми саволларининг умумий вазни 30 баллни ташкил қилади.

В қисми учта сценарийдан иборат бўлиб, ҳар бир сценарий учун талабага ҳар бири 2 балл вазнга эга бўлган 5 та мустақил тест саволларига жавоб бериш таклиф этилади. В қисми саволларининг жами вазни 30 баллни ташкил этади.

Ниҳоят, имтиҳоннинг С қисми ҳар бири 20 баллдан тўртта вазиятдан ташкил топган сценарийдан иборат бўлиб, улар электрон жадвалларда ҳисоб-китобларни ҳамда батафсил ёзма жавобларни талаб қиладиган саволларни ўз ичига олади.

Шундай қилиб, имтиҳонда олиш мумкин бўлган энг юқори натижа 100 баллни ташкил этади. Ўтиш бали – 50 балл.

## IV. Батафсил ўқув режаси ва ўқув мақсадлари

### 1-бўлим. Ташкилотнинг молиявий кичик тизимини бошқариш: мақсадлар, вазифалар ва контекст

#### 1.1 кичик бўлим. Ташкилотнинг мақсадлари ва уларни ўлчаш усуллари

Ушбу кичик бўлимни ўзлаштиргандан сўнг талабалар қуйидагиларни билишлари керак:

- A. Молиявий кичик тизимни ташкилотни бошқаришнинг бошқа кичик тизимлари контекстида муҳокама қилиш ва унинг алоҳида ўлчов ва бошқаришни талаб қиладиган ўзига хос хусусиятларини аниқлаш.
- B. Тижорат ташкилоти мақсадларини аниқлашга турли ёндашувларни муҳокама қилиш ва мақсад сифатида фойдани максималлаштириш эмас, балки акциядорлар бойлигини максималлаштиришни танлашни тушунтириш.
- C. Акциядорлар бойлигини максималлаштириш мақсади контекстида инвестиция ва молиялаштириш вазифаларини муҳокама қилиш.
- D. Тижорат ташкилотининг мақсадларига эришишнинг турли кўрсаткичларини (бозор, дивиденд ва умумий даромадлилик, бир акцияга тўғри келадиган фойда, хусусий ва қўйилган капитал рентабеллиги), шу жумладан оммавий бўлмаган ташкилотлар контекстида ҳисоблаб чиқариш.
- E. Тижорат ташкилотини акциядорлар манфаатларини кўзлаб бошқаришни барча манфаатдор томонлар манфаатларини кўзлаб бошқариш билан таққослаш.
- F. Замонавий ташкилотни бошқаришга нисбатан агентлик муносабатлари ва агентлик муаммосини муҳокама қилиш.
- G. Агентлик муаммосини бартараф этиш усуллари, шу жумладан бошқарув ходимларини мукофотлаш тизимлари, корпоратив бошқарув соҳасидаги энг яхши амалиёт ва қонунчиликни муҳокама қилиш.
- H. Нотижорат ташкилотларининг мақсадларини ва уларга эришишни баҳолаш усуллари, шунингдек молияни бошқаришнинг анъанавий инструментларининг нотижорат ташкилотларига нисбатан қўлланилишини муҳокама қилиш.

#### 1.2 кичик бўлим. Ташкилотнинг ташқи муҳити ва унинг молияни бошқаришга таъсири

Ушбу кичик бўлимни ўзлаштиргандан сўнг талабалар қуйидагиларни билишлари керак:

- A. Ташкилотнинг макроиқтисодий муҳитини, шу жумладан ҳукуматнинг фискал ва монетар сиёсатининг ташкилот мақсадларига эришишга таъсирини муҳокама қилиш.
- B. Миллий қонунчиликнинг ташкилот мақсадларига эришишга таъсирини муҳокама қилиш.
- C. Технологик омиларнинг молияни бошқариш ва ташкилотнинг мақсадларига эришишга таъсирини муҳокама қилиш.
- D. Молиявий институтлар ва бозорларнинг ривожланиши ва уларнинг ташкилот мақсадларига эришишга таъсирини муҳокама қилиш.

### 1.3 кичик бўлим. Молия бозорлари

Ушбу кичик бўлимни ўзлаштиргандан сўнг талабалар қуйидагиларни билишлари керак:

- A. Пул ва капитал бозорларининг ишлашини, шунингдек улар ўртасидаги фарқни тушунтириш.
- B. Пул ва капитал бозорларида фойдаланиладиган асосий молиявий инструментларни аниқлаш.
- C. Иқтисодиётда банклар ва бошқа молиявий воситачиларнинг вазифаларини муҳокама қилиш.
- D. Ташкилотлар учун халқаро капитал бозорларининг аҳамиятини муҳокама қилиш.

### 2-бўлим. Реал секторда инвестиция қарорларини қабул қилиш

#### 2.1 кичик бўлим. Фойдага асосида инвестиция қарорларини баҳолашнинг анъанавий усуллари

Ушбу кичик бўлимни ўзлаштиргандан сўнг талабалар қуйидагиларни билишлари керак:

- A. Инвестициялар рентабеллигини (ROI) ҳисоблаб чиқариш ва ушбу баҳолаш усулидан фойдаланганда лойиҳанинг мақбуллик мезонларини тушунтириш.
- B. Фойдага асосланган лойиҳаларни баҳолашнинг ҳар қандай усуллариининг релевант пул оқимларига асосланган усулларга нисбатан афзалликлари ва камчиликларини муҳокама қилиш.

#### 2.2 кичик бўлим. Релевант пул оқимлари асосида инвестиция қарорларини баҳолаш усуллари

Ушбу кичик бўлимни ўзлаштиргандан сўнг талабалар қуйидагиларни билишлари керак:

- A. Инвестиция қарорларини қабул қилиш контекстида релевант пул оқимлари тушунчасини тушунтириш.
- B. Лойиҳанинг дисконтланмаган қоплаш даврини ҳисоблаб чиқариш, ушбу баҳолаш усулидан фойдаланганда лойиҳанинг мақбуллик мезонларини тушунтириш, шунингдек унинг афзалликлари ва камчиликларини муҳокама қилиш.
- C. Лойиҳанинг соф келтирилган қийматини (NPV) ҳисоблаш, ушбу баҳолаш усулидан фойдаланганда лойиҳанинг мақбуллик мезонларини тушунтириш, шунингдек унинг афзалликлари ва камчиликларини муҳокама қилиш.
- D. Лойиҳанинг ички даромад келтириш ставкасини (IRR) ҳисоблаб чиқариш, ушбу баҳолаш усулидан фойдаланганда лойиҳанинг мақбуллик мезонларини тушунтириш, шунингдек унинг афзалликлари ва камчиликларини муҳокама қилиш.
- E. NPV ва IRR ўртасидаги эҳтимолий зиддиятлар сабабларини ва уларни бартараф этиш усуллариини муҳокама қилиш.
- F. Лойиҳанинг дисконтланган қоплаш даврини ҳисоблаб чиқариш, ушбу баҳолаш усулидан фойдаланганда лойиҳанинг мақбуллик мезонларини тушунтириш, шунингдек унинг афзалликлари ва камчиликларини муҳокама қилиш.

- Г. Инвестиция лойиҳасининг прогноз қилинган молиявий ҳисоботларга таъсирини муҳокама қилиш.
- Н. Инвестиция қарорларини қабул қилишда номолиявий мезонларнинг аҳамиятини муҳокама қилиш.

### 2.3 кичик бўлим. Ноаниқлик ва хавфнинг инвестиция қарорларига таъсири

Ушбу кичик бўлимни ўзлаштиргандан сўнг талабалар қуйидагиларни билишлари керак:

- А. Хавф ва ноаниқликни инвестиция қарорларининг ажралмас хусусияти сифатида муҳокама қилиш, шунингдек хавф ва ноаниқликни фарқлаш.
- В. Инвестиция лойиҳасининг аниқланган хавфлар реестрини тузиш ва ўз вақтида янгилаб бориш заруриятини муҳокама қилиш.
- С. Лойиҳанинг молиявий мақбуллигига таъсир кўрсатувчи омилларни, шу жумладан бозорлардаги ўзгарувчанлик, ҳукумат, рақобатчилар ва ҳ. к.нинг ҳаракатларини муҳокама қилиш.
- Д. Берилган эҳтимолликлар асосида лойиҳанинг кутилаётган соф келтирилган қийматини ҳисоблаб чиқариш ва олинган натижаларни талқин қилиш, шунингдек инвестиция қарори хавфини ҳисобга олишнинг ушбу усулининг афзалликлари ва камчиликларини муҳокама қилиш.
- Е. Инвестиция лойиҳасининг пул оқимлари ҳамда дисконтлаш ставкасига нисбатан ноаниқлигини ҳисобга олиш учун сезгирлик таҳлилини қўллаш, шунингдек сезгирлик таҳлилининг афзалликлари ва камчиликларини муҳокама қилиш.
- Ғ. Инвестиция қарори ноаниқлигини ҳисобга олиш усули сифатида имитацион моделлаштиришнинг афзалликлари ва камчиликларини муҳокама қилиш.
- Г. Турли даврлар учун турли дисконтлаш ставкаларидан фойдаланиш зарур бўлган сценарийларни муҳокама қилиш ва бундай вазиятларда соф келтирилган қийматни ҳисоблаб чиқариш.
- Н. Лойиҳа тугагандан сўнг инвестиция лойиҳаси натижаларини таҳлил қилишнинг муҳимлигини тушунтириш.

### 2.4 кичик бўлим. Солиқлар, инфляция ва айланма капиталдаги ўзгаришларнинг инвестиция қарорларига таъсири

Ушбу кичик бўлимни ўзлаштиргандан сўнг талабалар қуйидагиларни билишлари керак:

- А. Фойда солиғининг (шу жумладан солиқ амортизациясининг) инвестиция лойиҳаларини баҳолашга, шу жумладан релевант пул оқимлари ва дисконтлаш ставкасига таъсирини ҳисоблаб чиқариш ва тушунтириш.
- В. Қўшилган қиймат солиғининг релевант пул оқими сифатида инвестиция лойиҳаларини баҳолашга таъсирини ҳисоблаб чиқариш ва тушунтириш.
- С. Инфляциянинг инвестиция лойиҳаларини баҳолашга, шу жумладан релевант пул оқимлари ва дисконтлаш ставкасига таъсирини ҳисоблаб чиқариш ва тушунтириш.
- Д. Айланма капитал моддаларидаги ўзгаришларнинг инвестиция лойиҳаларини баҳолашга таъсирини ҳисоблаб чиқариш ва тушунтириш.

## **2.5 кичик бўлим. Чекланган бюджетда бир неча лойиҳалар ўртасида танлашнинг ўзига хос хусусиятлари**

Ушбу кичик бўлимни ўзлаштиргандан сўнг талабалар қуйидагиларни билишлари керак:

- A. Юмшоқ ва қатъий чекловлар ўртасидаги фарқни ажратиш, инвестициялар бюджетидagi чекловлар сабабларини муҳокама қилиш.
- B. Фақат бир давр мобайнида амал қиладиган бюджет чекловлари ва бир неча давр мобайнида амал қиладиган бюджет чекловлари ўртасидаги фарқларни тушунтириш.
- C. Агар лойиҳалар бўлинадиган бўлса, даромадлилик индексидан фойдаланган ҳолда фақат бир давр бюджет чекловлари шароитида оптимал инвестициялаш дастурини аниқлаш.
- D. Агар лойиҳалар бўлинмайдиган бўлса, фақат бир давр бюджет чекловлари шароитида оптимал инвестициялаш дастурини аниқлаш.

## **2.6 кичик бўлим. Турли ҳаётий циклга эга бўлган лойиҳалар ўртасида танлашнинг ўзига хос хусусиятлари**

Ушбу кичик бўлимни ўзлаштиргандан сўнг талабалар қуйидагиларни билишлари керак:

- A. Турли ҳаётий циклга эга бўлган ўзаро истисно қилувчи инвестиция лойиҳалари ўртасида танлашнинг эҳтимолий муаммосини муҳокама қилиш.
- B. Турли ҳаётий циклга эга бўлган ўзаро истисно қилувчи такрорланувчи лойиҳалар орасидан эквивалент йиллик наф ўсули асосида танлаш, шунингдек ушбу усулнинг афзалликлари ва камчиликларини муҳокама қилиш.
- C. Турли ҳаётий циклга эга бўлган ўзаро истисно қилувчи такрорланувчи лойиҳалар орасидан энг кичик умумий ҳаётий цикл ўсули асосида танлаш, шунингдек ушбу усулнинг афзалликлари ва камчиликларини муҳокама қилиш.

## **2.7 кичик бўлим. Узоқ муддатли активларни айирбошлашнинг оптимал цикли тўғрисида қарорлар**

Ушбу кичик бўлимни ўзлаштиргандан сўнг талабалар қуйидагиларни билишлари керак:

- A. Эквивалент йиллик наф ўсули асосида (фойда солиғининг таъсирини ҳисобга олган ҳолда) узоқ муддатли активларни айирбошлашнинг оптимал циклини ҳисоблаб чиқариш ва ушбу усулнинг қўлланилиш шартларини муҳокама қилишни билиш.
- B. Энг кичик умумий ҳаётий цикл ўсули асосида (фойда солиғининг таъсирини ҳисобга олган ҳолда) узоқ муддатли активларни айирбошлашнинг оптимал циклини ҳисоблаш ва ушбу усулнинг қўлланилиш шартларини муҳокама қилиш.

### 3-бўлим. Бизнес ва молиявий активларни баҳолашга кириш

#### 3.1 кичик бўлим. Бизнесни баҳолаш

Ушбу кичик бўлимни ўзлаштиргандан сўнг талабалар қуйидагиларни билишлари керак:

- A. Бизнесни баҳолаш талаб қилиниши мумкин бўлган сабабларни муҳокама қилиш.
- B. Тўзатишларни ҳисобга олган ҳолда баланс усуллари билан бизнес қийматини ҳисоблаб чиқариш ва бундай баҳолаш усуллариининг қўлланилиш шартларини муҳокама қилиш.
- C. Эркин пул оқими усули билан бизнес қийматини ҳисоблаб чиқариш ва ушбу баҳолаш усулиининг қўлланилиш шартларини муҳокама қилиш.
- D. Дисконтланган пул оқимлари усули билан бизнес қийматини ҳисоблаб чиқариш ва ушбу баҳолаш усулиининг қўлланилиш шартларини муҳокама қилиш.
- E. Бизнесни баҳолашнинг турли усуллариға хос бўлган ахборотға доир чекловларни ва уларни юмшатишнинг эҳтимолий усуллариини муҳокама қилиш.

#### 3.2 кичик бўлим. Акцияларни баҳолаш

Ушбу кичик бўлимни ўзлаштиргандан сўнг талабалар қуйидагиларни билишлари керак:

- A. Бизнесни баҳолаш ва ташкилот акцияларини баҳолашни фарқлаш.
- B. Доимий дивидендлар ҳамда ўзгармас суръатда ўсиб бораётган дивидендлар билан Гордоннинг дивиденд модели асосида акциялар нархини ҳисоблаб чиқариш ва ушбу баҳолаш усулиининг қўлланилиш шартларини муҳокама қилиш.
- C. P/E («нарх/фойда») коэффициенти асосида акциялар нархини ҳисоблаб чиқариш ва ушбу баҳолаш усулиининг қўлланилиш шартларини муҳокама қилиш.
- D. Умуман оммавий бўлмаган компаниялар акцияларини ва хусусан улардаги миноритар улушларни баҳолашнинг ўзига хос хусусиятларини муҳокама қилиш.

#### 3.3 кичик бўлим. Облигациялар ва бошқа қарз инструментларини баҳолаш

Ушбу кичик бўлимни ўзлаштиргандан сўнг талабалар қуйидагиларни билишлари керак:

- A. Облигациялар ва бошқа қарз инструментлари нархига таъсир этувчи омилларни тушунтириш.
- B. Облигациялар (муддатли ва муддатсиз) нархини ҳисоблаб чиқариш.
- C. Конвертацияланадиган облигациялар нархини ҳисоблаб чиқариш.

#### 3.4 кичик бўлим. Бозор самарадорлиги назарияси

Ушбу кичик бўлимни ўзлаштиргандан сўнг талабалар қуйидагиларни билишлари керак:

- A. Бозор самарадорлиги назариясини муҳокама қилиш ва самарадорликнинг кучли, ўрта ва кучсиз даражаларини фарқлаш.
- B. Бозор самарадорлигининг акциялар ва бизнесни баҳолаш учун аҳамиятини муҳокама қилиш.
- C. Акциялар баҳосига таъсир қилувчи ҳулқ омилларини муҳокама қилиш.

#### 4-бўлим. Ташкилотни молиялаштириш тўғрисида қарорлар қабул қилиш

##### 4.1 кичик бўлим. Қарзли молиялаштириш манбалари ва уларнинг таннархи

Ушбу кичик бўлимни ўзлаштиргандан сўнг талабалар қуйидагиларни билишлари керак:

- A. Қарзли молиялаштиришни улушли молиялаштириш билан инвестор учун хавф ва компания учун фойдаланиш имконияти нуқтаи назаридан таққослаш.
- B. Қарзли молиялаштиришнинг ташкилотнинг молиявий хавфига таъсирини муҳокама қилиш.
- C. Ташкилотнинг молиявий хавфи кўрсаткичларини ҳисоблаб чиқариш ва тушунтириш.
- D. Солиқ қалқонини ҳисобга олган ҳолда банк қарзининг таннархини ҳисоблаб чиқариш.
- E. Солиқ қалқонини ҳисобга олган ҳолда муддатли ва муддатсиз облигацияларнинг таннархини ҳисоблаб чиқариш.
- F. Имтиёзли акцияларнинг таннархини ҳисоблаб чиқариш ва уларнинг муддатсиз облигациялардан фарқини тушунтириш.
- G. Солиқ қалқонини ҳисобга олган ҳолда конвертацияланадиган облигацияларнинг таннархини ҳисоблаб чиқариш.

##### 4.2 кичик бўлим. Улушли молиялаштириш манбалари ва уларнинг таннархи

Ушбу кичик бўлимни ўзлаштиргандан сўнг талабалар қуйидагиларни билишлари керак:

- A. Ташкилот учун мавжуд бўлган улушли молиялаштириш манбаларини, шу жумладан тақсимланмаган фойда ва оддий акцияларни муҳокама қилиш;
- B. Оддий акцияларни чиқариш ёрдамида, шу жумладан фонд биржасида молиялаштиришни жалб қилишнинг афзалликлари ва камчиликларини муҳокама қилиш;
- C. Оддий акцияларни чиқаришнинг турли шакллари, шу жумладан ҳуқуқларни чиқаришнинг ўзига хос хусусиятларини муҳокама қилиш;
- D. Ҳуқуқларни чиқаришдан кейин акцияларнинг назарий нархини ва ҳуқуқнинг қийматини ҳисоблаб чиқариш;
- E. Доимий ўсиш билан Гордоннинг дивиденд модели ёрдамида улушли капитал таннархини ҳисоблаш ва ушбу усулнинг афзалликлари ва камчиликларини муҳокама қилиш;
- F. Тарихий маълумотлар асосида ёки тақсимланмаган фойданинг кутилаётган рентабеллиги асосида дивидендларнинг доимий ўсиш суръатини ҳисоблаб чиқариш;
- G. Капитал активларни баҳолаш модели (CAPM) ёрдамида улушли капитал таннархини ҳисоблаб чиқариш, ушбу усулнинг афзалликлари ва камчиликларини, шунингдек уни ривожланаётган бозорлар шароитида қўллаш хусусиятларини муҳокама қилиш;
- H. Портфель назарияси ва CAPM моделига нисбатан диверсификацияланадиган ва диверсификацияланмайдиган хавфни муҳокама қилиш.

#### **4.3 кичик бўлим. Ўзига хос молиялаштириш манбалари**

Ушбу кичик бўлимни ўзлаштиргандан сўнг талабалар қуйидагиларни билишлари керак:

- A. Исломий молиялаштиришнинг, шу жумладан савдо кредитининг, ижаранинг ва ислом облигацияларининг айрим энг кенг тарқалган шакллари тамойиллари ва қўлланилишини муҳокама қилиш.
- B. Венчур фондлари ҳамда институционаллаштирилмаган хусусий инвесторларни жалб қилган ҳолда венчур молиялаштиришнинг тамойиллари ва ўзига хос хусусиятларини муҳокама қилиш.
- C. Кичик бизнесни молиялаштиришнинг ўзига хос хусусиятларини муҳокама қилиш.
- D. Активларни кейинчалик ижарага бериш билан сотишни ўзига хос молиялаштириш шакли сифатида муҳокама қилиш.

Изоҳ: ушбу кичик бўлимга ҳисоб-китоблар кирмайди.

#### **4.4 кичик бўлим. Сотиб олинаётган активни молиялаштириш шаклини танлаш тўғрисида қарорлар: қарз ёки ижара**

Ушбу кичик бўлимни ўзлаштиргандан сўнг талабалар қуйидагиларни билишлари керак:

- A. Муайян активни сотиб олишни молиялаштиришга таъсир қилувчи номолиявий омилларни муҳокама қилиш.
- B. Солиқ оқибатлари ва инфляцияни ҳисобга олган ҳолда сотиб олинаётган активни молиялаштиришнинг оптимал шаклини танлаш.

#### **4.5 кичик бўлим. Капиталнинг ўртача тортилган таннархи (WACC) ва ундан инвестиция қарорларини қабул қилиш учун фойдаланиш**

Ушбу кичик бўлимни ўзлаштиргандан сўнг талабалар қуйидагиларни билишлари керак:

- A. Баланс ҳамда бозор вазнидан фойдаланиб, капиталнинг ўртача тортилган таннаrxини ҳисоблаб чиқариш.
- B. Капиталнинг ўртача тортилган (WACC) ва чекланган (MCC) таннаrxларини фарқлаш.
- C. Инвестиция лойиҳаларини баҳолаш учун дисконтлаш ставкаси сифатида капиталнинг ўртача тортилган таннаrxининг қўлланилиш шартларини муҳокама қилиш.
- D. Капиталнинг оддий ўртача тортилган таннаrxи қўлланилмайдиган ҳолатда капитал активларни баҳолаш моделидан (CAPM) фойдаланиб, муайян инвестиция лойиҳасининг хавфига тузатилган дисконтлаш ставкасини ҳисоблаб чиқариш.

#### **4.6 кичик бўлим. Капиталнинг оптимал тўзилишини танлаш масалалари**

Ушбу кичик бўлимни ўзлаштиргандан сўнг талабалар қуйидагиларни билишлари керак:

- A. Капитал тўзилишининг ўзгариши ва капиталнинг ўртача тортилган таннархи ўртасидаги қўтилаётган ўзаро боғлиқликни мўҳокама қилиш.
- B. Солиқлар билан ва солиқларсиз Модильяни ва Миллер моделларини, уларнинг ҳўлосаларини ва қўлланилиш шартларини мўҳокама қилиш.
- C. Капиталнинг оптимал тўзилишини шакллантиришга нисбатан иерархия назариясини мўҳокама қилиш.

#### **5-бўлим. Ташкилотнинг дивиденд сиёсати асослари**

Ушбу бўлимни ўзлаштиргандан сўнг талабалар қуйидагиларни билишлари керак:

- A. Акциядорлар бойлигини ошириш контекстида дивидендларни тўлашни мўҳокама қилиш.
- B. Дивидендларга ёки акция нархи ўсишидан олинган даромадга солиқ солишдаги потенциал фарқларни мўҳокама қилиш.
- C. Дивидендларнинг ахборот функциясини мўҳокама қилиш.
- D. Дивиденд сиёсати ва ташкилотнинг ҳаётий цикли ўртасидаги боғлиқликни мўҳокама қилиш.
- E. Дивидендларни мўнтазам тўлашга мўқобил вариантлар ва уларнинг қўлланилиш шартларини мўҳокама қилиш.

#### **6-бўлим. Ташкилотнинг айланма капитални бошқариш**

##### **6.1 кичик бўлим. Айланма капиталга инвестициялар даражаси ва уни молиялаштириш бўйича қарорлар**

Ушбу кичик бўлимни ўзлаштиргандан сўнг талабалар қуйидагиларни билишлари керак:

- A. Айланма капитални бошқариш мақсадларини мўҳокама қилиш;
- B. Айланма капиталга инвестициялар даражасини ва тегишли инвестициялаш сиёсатини белгиловчи омилларни мўҳокама қилиш;
- C. Айланма капитални молиялаштириш сиёсатини белгиловчи омилларни аниқлаш;
- D. Айланма капитал ва ликвидлик билан боғлиқ коэффициентларни, шу жўмладан операцион цикл коэффициентларини ҳисоблаб чиқариш ва талқин қилиш;
- E. Ташкилотда овертрейдинг ёки ҳаддан ташқари капиталлашўв ҳолатларини аниқлаш, уларнинг сабабларини ва вазиятни тузатиш чораларини мўҳокама қилиш.

## 6.2 кичик бўлим. Дебиторлик қарзини бошқариш

Ушбу кичик бўлимни ўзлаштиргандан сўнг талабалар қуйидагиларни билишлари керак:

- A. Дебиторлик қарзини бошқариш мақсадларини муҳокама қилиш;
- B. Кредит сиёсатининг таркибий қисмларини ва унинг ликвидлик ва даромад олишга таъсирини муҳокама қилиш;
- C. Кредит сиёсатини мониторинг қилиш ва долзарблигини сақлаш доирасида зарур тадбирларни муҳокама қилиш;
- D. Дебиторлик қарзининг йиғилишини ошириш учун кўриладиган чораларни муҳокама қилиш;
- E. Факторинг компаниялари таклиф этадиган хизматларнинг турли вариантларининг молиявий мақбуллигини баҳолаш ва муҳокама қилиш, шунингдек дебиторлик қарзини бошқариш усули сифатида факторингдан фойдаланишнинг номолиявий ўзига хос хусусиятларини тушунтириш;
- F. Муддатидан олдин тўлов учун чегирмаларнинг молиявий мақбуллигини баҳолаш ва муҳокама қилиш, шунингдек дебиторлик қарзини бошқаришнинг ушбу усулидан фойдаланишнинг номолиявий ўзига хос хусусиятларини тушунтириш;
- G. Харидорлар билан олдиндан тўлов схемасининг молиявий мақбуллигини баҳолаш ва муҳокама қилиш, шунингдек дебиторлик қарзини бошқаришнинг ушбу усулидан фойдаланишнинг номолиявий ўзига хос хусусиятларини тушунтириш;
- H. Хорижий харидорларнинг дебиторлик қарзини бошқаришнинг ўзига хос хусусиятларини муҳокама қилиш.

## 6.3 кичик бўлим: Захираларни бошқариш

Ушбу кичик бўлимни ўзлаштиргандан сўнг талабалар қуйидагиларни билишлари керак:

- A. Захираларни бошқариш мақсадларини муҳокама қилиш;
- B. Ташкилот томонидан ўшлаб туриладиган захиралар даражасига таъсир қилувчи омилларни, шу жумладан захираларнинг берилган даражасини сақлаш харажатларини муҳокама қилиш;
- C. Захиралар даражасини мақбуллаштириш мақсадида захираларни таснифлашнинг мумкин бўлган тизимларини (ABC, тез/секин айланувчанлиги ва ҳ. к.) муҳокама қилиш;
- D. Захираларни мақбуллаштириш усули сифатида буюртманинг оптимал ҳажми (EOQ) моделидан фойдаланганда қўшимча буюртма миқдори ва захираларнинг минимал даражасини (шу жумладан етказиб берувчиларнинг чегирмаларини ҳисобга олган ҳолда) ҳисоблаб чиқариш;
- E. Захираларни бошқаришнинг муқобил тизимлари (JIT, MRP ва ҳ. к.) тамойилларини муҳокама қилиш.

#### **6.4 кичик бўлим. Пул маблағларини бошқариш**

Ушбу кичик бўлимни ўзлаштиргандан сўнг талабалар қуйидагиларни билишлари керак:

- A. Пул маблағларини бошқариш мақсадларини муҳокама қилиш.
- B. Пул маблағлари ва ликвид қимматли қоғозлар баланси ҳажмига таъсир қилувчи омилларни муҳокама қилиш.
- C. Пул маблағлари прогнозини тайёрлаш.
- D. Тайёрланган пул маблағлари прогнози натижалари бўйича талаб қилинадиган ҳаракатларни муҳокама қилиш.
- E. Қисқа муддатли ортиқча пул маблағларини инвестиция қилиш учун пул бозори инструментларини танлаш мезонларини муҳокама қилиш.
- F. Миллер-Орр модели ёрдамида пул маблағларининг оптимал балансини ҳисоблаш.

#### **6.5 кичик бўлим. Кредиторлик қарзини бошқариш ва қисқа муддатли молиялаштириш**

Ушбу кичик бўлимни ўзлаштиргандан сўнг талабалар қуйидагиларни билишлари керак:

- A. Қисқа муддатли молиялаштириш контекстида кредиторлик қарзини бошқариш мақсадларини муҳокама қилиш.
- B. Етказиб берувчилар билан олдиндан тўлов билан ишлаш схемасининг молиявий мақбуллигини баҳолаш ва муҳокама қилиш.
- C. Етказиб берувчилар таклиф этадиган муддатидан олдин тўлов учун чегирмаларнинг молиявий мақбуллигини баҳолаш ва муҳокама қилиш.
- D. Хорижий етказиб берувчиларнинг кредиторлик қарзини бошқаришнинг ўзига хос хусусиятларини муҳокама қилиш.

### **7-бўлим. Ташкилотнинг валюта ва фоиз хавфларини бошқариш асослари**

#### **7.1 кичик бўлим. Валюта хавфини бошқариш асослари**

Ушбу кичик бўлимни ўзлаштиргандан сўнг талабалар қуйидагиларни билишлари керак:

- A. Валюта курсларининг ўзгаришини тушунтирувчи назарияларни муҳокама қилиш.
- B. Валюта хавфининг ҳар хил турларини ва уларнинг бошқариш учун аҳамиятини муҳокама қилиш.
- C. Мустаҳкамланаётган/заифлашаётган хорижий валютанинг миллий валютадаги келгуси тўловлар ёки тушумларга таъсирини, шу жумладан кросс-курслар ёрдамида вазиятларни ҳисоблаб чиқариш.
- D. Харид қобилияти паритети асосида прогноз валюта курсини ҳисоблаб чиқариш.
- E. Ҳосила инструментларни қўлламасдан валюта хавфини бошқаришнинг классик шакллари муҳокама қилиш.

- F. Пул бозорини хеджирлаш усулини қўллаганда тўланадиган ёки олинадиган суммани ҳисоблаб чиқариш.
- G. Валюта хавфини бошқаришда форвард шартномаларидан фойдаланишни муҳокама қилиш.
- H. Фоиз ставкалари паритети асосида форвард валюта курсини ҳисоблаб чиқариш.
- I. Фоиз ставкалари паритети асосида форвард шартномасининг ҳаққоний қийматини ҳисоблаб чиқариш.
- J. Валюта хавфини бошқаришда фьючерс шартномаларидан фойдаланишни муҳокама қилиш.

## 7.2 кичик бўлим. Фоиз хавфини бошқариш асослари

Ушбу кичик бўлимни ўзлаштиргандан сўнг талабалар қуйидагиларни билишлари керак:

- A. Фоиз ставкаларининг ўзгаришини тушунтирувчи назарияларни муҳокама қилиш.
- B. Фоиз ставкаларининг вақтинчалик тузилишини ва даромадлилик эгри чизиғи шаклини тушунтирувчи назарияларни муҳокама қилиш.
- C. Ҳосила инструментларни қўлламасдан фоиз ставкаси хавфини бошқаришнинг классик шакллари муҳокама қилиш.

## 8-бўлим. Математика кўникмалари

Ушбу бўлимни ўзлаштиргандан сўнг талабалар қуйидагиларни билишлари керак:

- A. Мураккаб фоизларни ҳисоблаб чиқариш ва уларнинг қўлланилиш соҳасини тушунтириш.
- B. Бир марталик тўлов учун, аннуитет учун ва муддатсиз аннуитет учун дисконт кўпайтирувчиларни ҳисоблаб чиқариш ва қўллашни билиш.

## 9-бўлим: Компьютер билан ишлаш кўникмалари

Ушбу бўлимни ўзлаштиргандан сўнг талабалар қуйидагиларни билишлари керак:

- A. Молиявий (NPV, IRR) ва арифметик функциялардан фойдаланган ҳолда лойиҳани таҳлил қилиш учун электрон жадвалларда ҳисоб-китобларни бажариш.
- B. Иш ҳисоб-китобларини туркумланган ва кўргазмали шаклда режалаштириш ва бажариш.